

7. Турдыева, Ш. Т., Тоирова, Н. Н., & Каримова, Д. И. (2014). Репродуктивное развитие девочек-подростков с хронической гастроудоденальной патологией. Современная медицина: актуальные вопросы, (29), 49-54.
8. Тоирова, Н. Н. "ЧАСТОТА ПАТОЛОГИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ У ДЕТЕЙ В ПЕРИОДЕ НОВОРОЖДЁННОСТИ." Молодежь и медицинская наука в XXI веке. 2015.

YUQUMLI BO‘LMAGAN KASALLIKLARDA BEMORLARGA KO‘RSATILAYOTGAN TIBBIY XIZMAT SIFATINI YAXSHILASH

Shomansurova E.A., Toxtayeva D.M.

**Toshkent pediatriya tibbiyot institute,
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent**

Dolzarbliqi. Bronxial astma keng tarqalgan va xavfli kasallik hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab 360 milliondan ortiq odam bronxial astma alomatlaridan aziyat chekmoqda. Bolalar orasida esa bu ko‘rsatkich 10-15%ni tashkil qiladi.

Maqsadi. Bolalar va o‘smirlarda surunkali yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni rivojlanish (asoratlanish) xavfi nazoratini o‘rganish va sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida o‘rta tibbiyot xodimlari amaliyotida profilaktik va rehabilitatsion yondashuvlarni takomillashtirish usullari bo‘yicha yondashuvlar ishlab chiqish.

Material va uslublari. Tadqiqot Toshkent shaxar surunkali yuqumsiz kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o‘rta tibbiyot xodimlari orasida olib borildi. To‘plangan anketa so‘rovnomalari asosida materiallar statistik usullarni asosiy parametrlari bo‘yicha taxlil kilinadi. Bundan tashqari oilaviy xamshiralardan anketa so‘rovnoma o‘tkaziladi. YUBNK bilan kasallangan bolalarni ota onalari bilan suxbat va anketa so‘rovnoma o‘tkazilib tadqiqotdagi ma‘lumotlar SSPF-statistik dastur yordamida taxlil qilindi.

Natijalar va muhokamasi. MKTP muassasalarida YBNK bilan og‘rigan bolalarga hamshiralik yordami sifati, tibbiy-profilaktika yordami, xususan, YBKni aniqlash, kasallikning kechish xususiyatlarini hisobga olgan holda dinamik monitoring QD bilan kasallangan bolalarni parvarishlash standartlari va xalqaro tavsiyalarga mos kelmasligini guvohi bo‘ldik. Bemorlarni ambulatoriya-tibbiy karta yozuvlari ma‘lumotlarini o‘rganishni retrospektiv tahlil qilish bilan bir qatorda TBHning hududdagi YBNK bilan og‘rigan bolalar bilan olib borayotgan ishlarini ham istiqbolli tahlil qildik. Ma‘lumki, hamshiralik yordami natijalari sifatining xususiyatlari qatorida bemorning ularga ko‘rsatilayotgan yordam sifatidan qoniqish xususiyatlari ham bor. Ambulatoriya xizmatida bemorlarga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha hamshira faoliyati sifati ko‘rsatkichlari orasida bemorning hamshira bilan muloqot qilish xarakterini sub‘ektiv baholash, bemorni davriy tekshiruvdan o‘tkazishning to‘liqligi muhim ahamiyatga ega; tibbiy yordamning o‘z vaqtida ko‘rsatilishi; hamshiralik muolajalarining sifati; ularning salomatlik ko‘rsatkichlari dinamikasidan xabardorligi; Bemorlarni qo‘llab-quvvatlash va xamshira bemorga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rlikdan bemorni qoniqishi, hamshira va bemorni yaqin qarindoshlari o‘rtasidagi aloqa darajasi, kabi savollarga javobni so‘rovnoma orqali bilib oldik. QD kasalligi xaqida qayerdan ma‘lumot olasiz deb so‘raganimizda 56ta(47%) bola shifokordan deb javob bergan bo‘lsa 8ta (7%)bola oila xamshirasidan deb javob bergan. 15 ta (12%) bola esa gazeta va jurnallardan deb javob. TV va radiodan degan 7 ta (6%) bola, 33 ta (28%) bola esa boshqa kasallardan deb javob berganlar.

Xulosalar. Tibbiy brigada xamshiralarning vakolatlarini malakasiga qarab kengaytirish loyihasini amalga oshirish nuqtayi nazaridan mahalliy sog‘liqni saqlash oldida turgan asosiy ustuvor vazifalarga muvofiq, kasbiy standartlarga o‘tishi, ularning faoliyati, tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. quyidagi vazifalarni hal etishda: birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini, kasalliklarning oldini olish va sog‘lomlashtirishni rivojlantirish,

aholini gigiyena tarbiyasi va tarbiyalash; uyda parvarishlash hajmini oshirish; reabilitatsiya tadbirlari doirasi va hajmini kengaytirish shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шамансурова, Э. А., and Ш. А. Абдуразакова. "Роль pH мочи при уролитиазе у детей." Российский педиатрический журнал 3.1 (2022): 341.
2. Агзамова, Ш. А., and Ф. Р. Бабаджанова. "ВРОЖДЕННЫХ ПОРОКОВ СЕРДЦА У ДЕТЕЙ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН." Вестник национального детского медицинского центра 2 (2022): 11-15.
3. Деворова, М. "Особенности распространения аллергического ринита у детей." Актуальные вопросы практической педиатрии 1.2 (2024): 48-50.
4. Ergasheva, N., Y. Madjidova, and B. Ergasheva. "Disorders of defecation in children with spinal pathology." EUROPEAN JOURNAL OF NEUROLOGY. Vol. 22. 111 RIVER ST, NOVOKEN 07030-5774, NJ USA: WILEY, 2015.
5. Шухратова, Д. Ж., Абдуразакова, Ш. А., & Агзамова, Ш. А. (2016). Характер изменений гематологических показателей при целиакии у детей школьного возраста в зависимости от формы заболевания. Евразийский Союз Ученых, (29-1), 36-37.
6. Тохтаева, Доно Махмуджановна, and Салима Каюмовна Назарова. "СоверШенСтвовање СеСтринСкоГо уХода За БоЛЬными С СаХарным диаБетом на амБуЛаторно-поЛикЛиниЧеСком уровне." FORCIPE 5.S2 (2022): 499.
7. Турдыева, Ш. Т., Тоирова, Н. Н., & Каримова, Д. И. (2014). Репродуктивное развитие девочек-подростков с хронической гастродуоденальной патологией. Современная медицина: актуальные вопросы, (29), 49-54.
8. Тоирова, Н. Н. "ЧАСТОТА ПАТОЛОГИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ У ДЕТЕЙ В ПЕРИОДЕ НОВОРОЖДЁННОСТИ." Молодежь и медицинская наука в XXI веке. 2015.

TIBBIY BRIGADA HAMSHIRASINING YUQUMLI BO'LMAGAN KASALLIKLAR BILAN KASALLANGAN BEMORLARNI PARVARISHLASHI

Shomansurova E.A., Toxtayeva D.M.

**Toshkent pediatriya tibbiyot instituti,
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent**

Dolzarbliqi. SYBKdan biri bo'lgan bolalar va o'smirlar orasida uchraydigan qandli diabet keng tarqalgan asoratlaridan o'lim ko'rsatkichi va nogironlikni ortishi bilan tavsiflanib bolalar endokrinologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, bolalar o'rtasida kasallanish tobora o'sib bormoqda. Bu kasallikda bolalar va o'smirlarning me'yorida o'sishi va rivojlanishi uchun sifatli ovqatlanish va samarali tibbiy xizmat ko'rsatish katta ahamiyatga ega. Kasallik jarayonlarini o'ziga xos kechishi, asoratlarni rivojlanishi va yangi kasallanganlar sonini ortishi bu patologik jarayon bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilishi zarurligini taqozo etmoqda.

Maqsadi. Bolalar va o'smirlarda surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklarni rivojlanish (asoratlanish) xavfi nazoratini o'rganish va sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida o'rta tibbiyot xodimlari amaliyotida profilaktik va reabilitatsion yondashuvlarni takomillashtirish usullari bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqish.

Material va uslublari. Tadqiqot Toshkent shaxar surunkali yuquqsiz kasalliklar bilan kasallangan bolalar va o'rta tibbiyot xodimlari orasida olib borildi. To'plangan anketa so'rovnomalari asosida materiallar statistik usullarni asosiy parametrlari bo'yicha taxlil kilinadi. Bundan tashqari oilaviy xamshiralardan anketa so'rovnoma o'tkaziladi. YUBNK bilan